



## USMON AZIM PEYZAJINING O‘ZIGA HOS XUSUSIYATLARI

**Jumanova Shahnoza Ikromjonovna**  
*Qo‘qon universiteti dosenti, v.b (PhD)*

*Annotatsiya.* Maqolada O‘zbekiston Xalq shoiri Usmon Azimning peyzaj yaratish mahorati haqida so‘z boradi. Shoirning muhabbat mavzusidagi baxshiyonalarida sof peyzaj lirikasi namunalari tahlilga tortiladi. Shoir tabiatdagi har bir bo‘lakni: tog‘, dala, dasht, bog‘, sahro, qushlar, daryo, ko‘l, buloq, osmon, oy, yulduzlarni – barcha-barchasini she‘r ichiga poetik vazifa bajarish uchun mahorat bilan singdirib yuborganligi isbotlanadi.

*Kalit so‘zlar:* obraz, motiv, peyzaj, lirik qahramon, ramz, metafora, estetik kategoriya, milliylik, axloqiy qadriyat, poetik ma‘no.

Usmon Azim mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida teran mushohadali, tabiat va jamiyatda bo‘layotgan o‘zgarishlarni sinchkovlik bilan kuzatuvchi ijodkor sifatida o‘zi ilg‘agan, guvohi bo‘lgan manzara va lavhalarni tildagi mavjud badiiy vositalar yordamida ifoda etadi. Shuning uchun ham Usmon Azim she‘riyatida kutilmagan tasvirlar hamda obrazlar kitobxon e‘tiborini jalb etadi.

Usmon Azim inson va tabiatning mangu uyg‘unligi muammosini yurt taqdiri, millat taqdiri bilan bog‘laydi. Baxshiyona she‘rlarda ushbu xususiyat bo‘rtib, ko‘rinib turadi. “Mohiyatga ko‘ra g‘oya ko‘pincha tabiatda namoyon bo‘ladi”[2. 127]. Shoir tabiatdan kutilmagan manbalar, shaffof tuyg‘ular topadi. Shu bois peyzaj va she‘riyat qadimdan to hozirga qadar egizak tushuncha sifatida talqin etiladi. Usmon Azim tabiat timsolida inson dunyosining murakkab nuqtalarini tadqiq etadi.

Baxshiyonalarda muhabbat mavzusi juda jarangdor, ohangjama va go‘zal tasvirlangan. Bu tasvirlarda oshiq ma‘shuqlarning “oh”i ham ko‘ngilni yayratadi. Elbek baxshi va Oytuman, Alpomish va Barchin, Kunto‘ra va Mingsuluv, Mengliyoiz va Norbibi muhabbati yoniq va haroratli misralarda namoyon bo‘ladi. Usmon Azimning muhabbat mavzusidagi baxshiyonalarida sof peyzaj lirikasiga mansub misralarni uchratamiz:

Osmonlarga boqdim, turna tizildi,  
Turnalarga qarab ko‘nglim buzildi.  
Turnalarga qarab sizni eslasam,  
Avaylab bog‘lagan umrim uzildi [3. 374].

“Osmonda uchayotgan turnalar” tasviri umrning o‘tib borayotganiga ishoradir. Keyingi badda shoir “ishq”ni “Xudo bergan falak”ka o‘xshatib, “yurak”ni “erda



yotgan tosh”ga mengzaydi. Mingsuluv tilidan aytilgan bu qo‘shiqda Mingsuluv “bir egiling, Xudo bergan osmonim” deb chiroyli o‘xshatish qiladi.

Qumqo‘rg‘ondan o‘tib Surxon oqadir,

Yo‘llariga Jayhundaryo oqadir.

Yolg‘iz-yolg‘iz daryolar ham bir bo‘ldi,

Bir bir bo‘lsak – Xudoga ham yoqadir [ 3. 375].

Dastlabki ikki misrada ikki daryo – Surxondaryo va Amudaryo tasvirlanadi. Keyingi misralarda oshiq va ma‘shuq shu ikki daryoga qiyoslanadi. Ikki daryoning uchrashish joyi – o‘zan bo‘lsa, ikki sevishganning uchrashish joyi visol manzilidir. Shoir tabiat tasviridan juda mohirona, ustalik bilan foydalanadi. Tabiatdagi har bir bo‘lak: tog‘, dala, dasht, bog‘, sahro, qushlar, daryo, ko‘l, buloq, osmon, oy, yulduzlar – barcha-barchasi she‘r ichiga poetik vazifa bajarish uchun singib ketadi. Bu Usmon Azimning yuksak shoirona mahoratini ko‘rsatadi.

Osmonga boqsangiz, qushga to‘ladir.

Ayriliqning umri tushga to‘ladir.

Ushbu tabiat manzarasi ham o‘ziga esh bo‘lgan bir falsafiy fikr bilan hamohanglik hosil qilgan. “Osmonning qushga”, “ayriliqning umri tushga” to‘laligi bilan ham she‘riy ohang sayqallangan, ham falsafiy ma‘no yuklagan.

Bog‘ ichinda gulu barg ochdi daraxt,

Gullariga to‘ymagay ko‘zim qarab.

Bog‘ aro, men ham nechun gul bo‘lmayin,

Kelasan bahor kabi – ko‘ngil talab [ 3. 372].

Ushbu parchada “bahor”, “bog‘”, “daraxt”, “gul” peyzaj unsurlaridan foydalanilib, bahor kelib, bog‘da daraxtlarning barg ochganini, gullar ochilgani manzarasi tasvirlanadi. Lirik qahramon bu manzaraga boqib o‘zining qismatidan iztirob chekib, gul bo‘lib yaralmaganidan pushaymon chekadi. Usmon Azim hech bir tabiat manzarasini shunchaki keltirmaydi. Har bir manzara ortida shu tasvirga qarab turgan insonning orzu-armonlari, g‘am-quvonchlari yashiringan.

Bog‘larga kuz keldimi,

Falakda turna, yor-a?

Meni kuzakka tashlab,

Bahorda yurma, yor-a! [ 3. 365].



Shoir “bahor”ni orzu va quvonchlar fasli, “kuz”ni esa intihoga yaqinlashuv va armonlari fasli deb biladi. Osmonda turnalarning paydo bo‘lishi kuzdan darak beradi, lirik qahramon ushbu manzaraga boqib turib yolg‘iz qolganini anglaydi va xavotirga tushadi.

Baxshiyonalardan biri usta Jonqobil bilan Boymurodbiyning qizi Gulkelar muhabbati haqida bo‘lib, ushbu baxshiyonada ham shoir oshiqning izhorlarini tabiat manzaralari tasviri bilan hamohanglikda tasvirlaydi.

Kechasi tog‘lar zim-ziyo,  
Boshimda aylanar dunyo.  
Yig‘laganim tosh ham bildi,  
Toshlar sendan yaxshimi yo? [ 3. 363].

“Tog‘” peyzaj unsuri lirik qahramon – Jonqobilning dardiga sherik, lekin Gulkelar tog‘lar kabi uning dardini anglamaydi. Inson insonni tushuna olmaganda, tabiat insonni hech qachon xafa qilmaydi. Shoirning ushbu hayotiy iqrori keyingi bandlarda yana kuchaytiriladi. Tog‘ boshida yurgan kiyikning yo‘lini bo‘ri to‘sib chiqishi oshiq va ma‘shuqning muhabbatiga ishora qiladi. Lirik qahramon yolg‘izlik har dardga duchor qilishini yolg‘iz yurgan kiyik misolida mahbusasiga tushuntirmoqchi bo‘ladi:

Tog‘ boshida yolg‘iz kiyik,  
Bo‘ri yo‘lin o‘tar qiyib.  
Tosh bo‘lsang ham xabar olgin,  
Ado bo‘ldim kuyib-kuyib [ 3. 363].

Baxshiyonalar ichida Yilboshiga bag‘ishlangan she‘r tabiat tasviri mo‘lligi bilan ajralib turadi. Ushbu baxshiyonada “o‘t-o‘lan”, “shamol”, “dala”, “dasht”, “yomg‘ir”, “tosh”, “qir”, “bulut”, “ko‘klam”, “tog‘”, “tosh”, “hut oyi”, “er” kabi peyzaj unsurlaridan foydalanilgan.

- \* Shamoli sochim taragan,  
Tog‘larga bulut qalagan;
- \* Qirlarda ko‘nglim chopadi,  
Yomg‘ir toshiga burkanib.
- \* Hut oyi qizib o‘tdima,  
Bahorni tuzib o‘tdima?
- \* Erda dimiqib qishlagan,



O‘t-o‘lanlarning qulog‘in,  
Shamollar endi tishlagan. [ 3. 355-357].

Usmon Azim Yilboshini – bahorning kirib kelishini juda yoniq pardalarda, avj ohangda tasvirlaydi. She‘rni o‘qir ekansiz, baxshilarning to‘lib-toshib kuylayotgani qulog‘ingiz ostida eshtilib turadi.

N.Shukurov “Uslublar va janrlar” kitobida G‘.G‘ulom ijodida milliylikning aks etishi haqida fikr yuritir ekan, «quyoshga tig‘ urib uchgan kurkunak, dosh qozonda qaynab pishayotgan shinnilar, qirq besh xil uzumlar osilgan atan, janaqi, qandil olmalar, qo‘g‘a poyasiga bog‘lab shipga osilgan qovunlar, nimtatir shabada, shabnam, bedana, chaylaga o‘rmlab chiqqan suvqovoq, zumrad butoqda, oltin chanoqda ochilib yotgan paxtalar haqida gapirib, O‘zbekiston kuzining o‘ziga xos ko‘rinishlarini milliy psixika bilan idrok etadi va tasvirlaydi», deb yozadi Bu fikrlar Usmon Azim ijodiga ham birday taalluqlidir.

Xalqning bugungi kundagi tashvishi, maqsadi, quvonchini his qila bilgan Usmon Azim o‘z she‘rlarida ularni ochib berishga intiladi, o‘z maqsadiga mos badiiy vositalar axtaradi. Bu intilish shoir she‘rlariga tabiat unsurlariga jonlilik, ta’sirchan obrazlilik yuklaydi. Uslubni yuzaga keltiruvchi eng zarur omillardan yana biri–san’atkorning hayotni, uning mohiyatini, qa’ridagi haqiqatni tadqiq va tahlil qila bilishi bilan bog‘liqdir. Inson ruhiyatining boy va yashirin sirlarini, ularning tub estetik qimmatini kashf etish san’ati–ruhiyati, bilimdonligi bilan bevosita aloqadordir.

Usmon Azim “Baxshiyona” turkumiga kiruvchi she‘rlaridan birida shunday yozadi:

Maysaga ezmayman, deb aytdim,  
Daraxtga kesmayman, deb aytdim.  
Tuprog‘imga, sen deb o‘lsam,  
Og‘riqni sezmayman, deb aytdim.  
Ayolga suyaman, deb aytdim,  
Ishqingda kuyaman, deb aytdim [ 3. 315].

Shoirning “Bolalikning so‘nggi kunlari”, “Boychechak” she‘rlarida bizning milliy o‘yinlarimiz va qo‘shiqlarimiz to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Uning “Bolalikning so‘nggi kunlari” she‘rida chillak o‘yini tasviri kitobxonni olis bolalikka tomon etaklaydi. Ushbu she‘rda qo‘llanilgan “bahor”, “quyosh”, “qor” kabi tabiat unsurlari she‘rdagi manzarani aniq tasvir etadi:



U bahorni kutdi intizor,  
Yo'llariga ko'z tutdi ilhaq.  
Quyosh chiqsa, erib bitsa qor,  
To'yib-to'yib o'ynardi chillak [ 3. 105].

Shoir tabiatning barcha bo'laklaridan foydalanib, ularni harakatga keltirib she'rning tirikligini ko'rsatadi. Tirik she'r o'quvchining tuyg'ularini toblaydi, qalbini qalqitadi, so'z bilan yashash hissini tuyadi.

Boshimdan davroning eladi,  
"Yor" desam – shamoling keladi.  
Tog'lardan balandroq boshimni,  
Sog'inching qorlarga beladi [ 3. 360].

Ushbu she'riy parchada ham shoir "tog'lardan balandroq" boshini yorning sog'inchi "qorlarga belaganini" aytar ekan, "tog'", "shamol", "qor" kabi peyzaj unsurlarini o'xshatish vositasi sifatida ishlatadi. Bu esa she'rdagi manzarani aniqroq tasavvur qilish va lirik qahramon kayfiyatini yaxshiroq his qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki "poeziya tavsiflar bilan emas, balki, kartina va obrazlar bilan so'zlashi kerak; poeziya buyumni tavsif etmaydi va undan nusxa ko'chirmaydi, balki, uni yaratadi"[1. 213]. Ushbu yaratilgan obraz esa shoir ilgari surayotgan ma'lum bir g'oyani hamda shoirning dunyoqarashini ifoda qilishda muhim o'rin tutadi.

"Baxshiyona" dan keyin shoir qalamiga mansub "Qo'ng'iroq ayollarining qo'shiqlaridan" turkumidan she'rlarning ("Chapani yoxud jaydari she'rlari" nomi bilan ham chop etilgan) ham toza xalqona talaffuzda ifoda topishi shoir badiiy tafakkuri shakllanishida o'zi unib-o'sgan yurt tabiati va xalq og'zaki ijodining o'rini ta'kidlaydi:

Ketmonchopti ustiga qo'ndi bulut  
Qo'shiq aytib o'tarsiz har dam kulib.  
Qo'shig'ingiz damlari seldan ziyod,  
Biz kabi toshlarni ham ketgay yulib.  
Saratonning kechasi –sog'inch payti,  
Bobotog'dan o'tasan qo'shiq aytib.  
Yo'qolgan qo'shig'ining bir baytiman,  
Qo'shig'ingga avj bo'lay, kelgin qaytib [3. 373]



Shoir tabiatdan kutilmagan manbalar, shaffof tuyg'ular topadi. Shu bois peyzaj va she'riyat qadimdan to hozirga qadar egizak tushuncha sifatida talqin etiladi. Usmon Azim tabiat timsolida inson dunyosining murakkab nuqtalarini tadqiq etadi.

Karvon yo'li ketgunicha qizg'aldoqzor,

Yig'lamagin, yig'lagandan dunyo bezor [3. 319]

“Qizg'aldoqzor” peyzaj unsuri yana tog'ga borib taqaladi. Chunki qizg'aldoq qoplagan adir orqali tog'ga boriladi. She'rdan Elbek baxshining suygan yori Oytumanni karvon olib ketmoqda. Oytuman borayotgan o'zga diyor esa “qorli tog'dan narida” joylashgan.

Yorug' oylarim, xayr,

Uzun soylarim, xayr,

Kindik qoni to'kilgan

Ena joylarim, xayr –

Boysunimdan ayrildim [3.342].

Usmon Azimning topografik she'riyatga yorqin misol bo'la oladigan Boysun peyzaji baxshiyonalarda ham tez-tez tilga olinadi. Yuqoridagi she'riy parchada Boysundan ayro qolgan Bovir baxshi tilidan shoir o'z yurti bilan bog'liq iqrorlarini, sog'inchlarini bayon etadi.

Boysun – Usmon Azim she'rlaridagi eng ko'p uchraydigan adabiy makon. Shoir o'zi tasvirlaydigan shaharning nomini ko'p ham tilga olavermasligi mumkin, lekin bolalik, ilk muhabbat, yurt sog'inchi ruhidagi she'rlarda Boysun nomi she'ring tag zamirida ham, she'r matnida qalqib turadi.

Go'r bo'ldimma dosh bo'lib,

To'kilaman yosh bo'lib,

Asqartog'da qolayin

Xudo urgan tosh bo'lib –

Boysunimdan ayrildim [3.342].

Baxshiyonalarda Boysun Alpomishning makoni deb tasvirlansa-da, aslida shoirning ichki sog'inchlari yo'nalgan nuqta, talpinish ob'ekti vazifasini bajaradi. Baxshiyonalarda “Boysun” adabiy makoni peyzajlarning bosh manbasi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu she'rlarda uchraydigan “dasht”, “tog'”, “qir”, “adir”, “qizg'aldoqzor”, “bog'”, “daraxt”, “tosh”, “shamol” kabi peyzaj unsurlari bevosita Boysun tabiatiga aloqador ekanini sezish qiyin emas. “Daryoday ozod oqish”, “oyday erkin boqish”,



“shamolday ozod kezish”, “xas kabi qaltiramaslik”, “saratonda daraxt kabi soya bo‘lish”, “qarg‘a qoshida qarg‘a bo‘lib sayramaslik”, “bulbulday jon o‘rtash”, “tog‘dan qattiq peshona” kabi poetik birikmalar shoir baxshiyona she‘rlaridagi ozod va bo‘ysunmas ruhni tabiatdan olganini dalillaydi.

Shom chog‘i yulduzlik baxti bor.

Sog‘inchda yolg‘izlik baxti bor.

Hasratda qo‘shig‘im gulladi,

Shu gulga ildizlik baxti bor [3.321].

Ushbu iqrar Usmon Azimning she‘rga xos barcha badiiy xususiyatlar, she‘riy san‘atlarni tabiatdan olishiga, shoir o‘zini tabiatning sinchkov kuzatuvchisi ekaniga misol bo‘la oladi. “Shom”da yulduz chiqa boshlashi, qo‘shiqning “gullashi” va gullagan qo‘shiqning ildizi borligi shoirning teran-falsafiy mulohazalari, xulosalari ham tabiat qonunlari bilan omixta ekanini ko‘rsatadi.

Usmon Azim ijodida inson va tabiat munosabati asosiy o‘rin tutadi. Bu munosabat goh ziddiyat, goh uyg‘unlik kasb etadi. Uning she‘riyatida tabiat hodisalari, fasllar, jonzotlar, daraxtlar tilga kirib, lirik qahramonning kayfiyati bilan parallelizm hosil qiladi. Uning she‘riyatida xalqona ohangina emas, xalqning hayoti ham bo‘y-bastini ko‘rsatib turadi. Lirik qahramonning kayfiyati va hayotiy iqrorlari she‘rdan she‘rga, ba‘zan bir she‘rning o‘zida banddan bandga o‘sib, rivojlanib, mukamallashib boradi. Inson va tabiat munosabati, ijtimoiy motivlar shoirning atrofidagi konkret voqelikka obrazli munosabatida aks etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar. - T.: 1955.
2. G.F.Gegel. Estetika. v.4t. - Moskva: 1968.
3. Usmon Azim. Tanlangan asarlar. 1 jild. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2016.
4. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548.
5. J Shahnoza.(2023) Usmon Azim she‘riyatida metaforalarning o‘rni. NamDu ilmiy axborotnomasi 11, 292-298
6. J Shahnoza. Milliylikni ifodalashda peyzajning o‘rni.(2023). Turkiy xalqlar adabiyotia dabiyo aloqalar, adabiy ta‘sir va va tarjima, 600-603
7. J Shahnoza.(2022). Usmon Azim balladalarida tabiat tasvir. O‘zbek tili va adabiyoti 3, 51-55



8. Ikromjonovna, J. S. (2023). PEYZAJNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDAGI O'RNI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 97-99.
9. Ikromjonovna, J. S., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). O 'ZBEKISTONDA PISA TESTI NATIJALARI VA BOSHLANG 'ICH TA'LIM O 'QUVCHILARINI BU TESTGA TAYYORLASH ISTIQBOLLARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 159-162.
10. Maxliyoxon, J Shaxnozaxon. (2024). DRAMA AND ARTISTIC READING IN PRIMARY GRADES: Study guide. ISBN-13 : 979-8324468415 1, 142

